

**VAKOLATLI ITISODIY OPERATORLARGA QO‘YILGAN TALABLARNI
SODDALASHTIRISH MASALALARI****Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich***O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti**Bojxona nazorati kafedrasi boshlig‘i.***Salamov Sarvar Tashpulatovich***O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti**Bojxona nazorati kafedrasi katta o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada vakolatli iqtisodiy operatorlarga (VIO) qo‘yilgan talablarni soddalashtirish masalalari tahlil qilinadi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, VIO instituti tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi subyektlarga qulayliklar yaratish, bojxona ma‘muriyatchiligini yengillashtirish hamda xalqaro savdoda ishonch muhitini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu institutni takomillashtirish orqali bojxona tartib-taomillarining samaradorligini oshirish, biznes uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish va xalqaro savdo tizimiga integratsiyani jadallashtirish mumkin. Tadqiqotda VIOga qo‘yiladigan talablarni xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqish, ortiqcha ma‘muriy yuklarni qisqartirish va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali soddalashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Vakolatli iqtisodiy operator, bojxona ma‘muriyatchiligi, xalqaro savdo, soddalashtirish, xavfsizlik, ishonch, raqamli texnologiyalar, bojxona tartib-taomillari.

Bojxona tizimi mamlakatimizni jahon iqtisodiyoti bilan bog‘laydigan muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida bojxona tizimi jahon standartlariga mos ravishda implementasiya qilinishini taqozo etadi. Jahon standartlaridagi asosiy talablar bojxona rasmiylashtiruv uchun sarflanadigan vaqt sarfini maksimal darajada kamaytirish, halol tadbirkorlik sub’yektlariga nisbatan bojxona nazorati shakllarini minimal darajada qo‘llash, tizimni xalqaro konvensiyalar talablariga uyg‘unlashtirish hisoblanadi. Ushbu talablardan kelib chiqib, respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish, shu jumladan, bojxona ma‘muriyatchiligi sohasida mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 24-noyabrda PF-5582-son Farmoniga asosan 2019-yil 1-fevraldan boshlab Vazirlar Mahkamasining "Vakolatli iqtisodiy operator institutini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 363-sonli qaroriga bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan talablarga javob beradigan tashqi iqtisodiy faoliyatning halol ishtirokchilariga soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillaridan foydalanish huquqini taqdim etishni nazarda tutuvchi xalqaro standartlarga muvofiq vakolatli iqtisodiy operatorlar instituti joriy etilgan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 500-sonli qaror bilan vakolatli iqtisodiy operatorlar faoliyatini tashkil etish belgilangan. Mazkur institutning joriy etilishi bojxona tartib-taomillarining yanada soddalashtirilishiga, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga, shuningdek, biznesni rivojlantirish yo'lida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq, ushbu loyiha to'liq samara bermadi. Hozirgi kunga kelib respublikamizdagi VIOlar soni bor-yo'g'i 44 tani tashkil etib, ulardan 3 nafarining maqomi aktiv holatda emasligi⁴¹, yuqoridagi fikrimizga yaqqol asos bo'ladi. Bu esa tizimda hal qilinishi kerak bo'lgan yetarlicha muammolar bor ekanligini anglatmoqda.

Bojxona tizimida vakolatli iqtisodiy operator (VIO) institutining joriy etilishi xalqaro standartlarga muvofiq muhim qadamlardan biri bo'lib, u halol tadbirkorlik subyektlari uchun katta imkoniyatlar yaratishi kerak edi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur institut to'liq kuch bilan ishlamayapti. Bunga bir nechta omillar sabab bo'lmoqda.

Birinchidan, normativ-huquqiy bazada ayrim noaniqliklar mavjudligi tadbirkorlik subyektlarining VIO maqomini olishga bo'lgan qiziqishini pasaytirib qo'ymoqda. Shuningdek, VIO maqomini olish jarayonidagi ortiqcha hujjatbozlik va murakkab tartib-taomillar tadbirkorlar uchun qo'shimcha byurokratik to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan, imtiyoz va preferensiyalarning cheklanganligi ham muammo hisoblanadi. Ya'ni, VIO maqomini qo'lga kiritgan tadbirkorlik subyektlari boshqa ishtirokchilarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega emas. Shu bois ushbu maqomni olishdan ko'riladigan amaliy foyda ko'p hollarda tadbirkorlarning xarajatlarini qoplamaydi.

Uchinchidan, bojxona tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va integratsiya jarayonlari yetarli darajada to'liq emasligi tufayli, nazorat va rasmiylashtirish jarayonlari ko'plab hollarda qo'lda bajariladi. Bu esa VIO maqomiga ega bo'lgan subyektlarga ham, oddiy tadbirkorlarga ham katta farq tug'dirmaydi.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya yoki Singapur kabi mamlakatlarda VIO institutining samarali ishlashi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi doimiy muloqot, tadbirkorlar uchun ochiq ma'lumotlar

bazasini yaratish va nazorat tizimlarining to‘liq elektronlashtirilishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonda esa bu boradagi mexanizmlar endigina shakllanmoqda.

Kelajakda mazkur institutni yanada samarali qilish uchun:

VIO maqomini olish tartibini soddalashtirish, hujjatlar sonini kamaytirish;

VIOlarga taqdim etiladigan imtiyozlarni kengaytirish (bojxona rasmiylashtiruvda ustuvorlik berish, xavf tahliliga asoslangan nazorat choralarini qisqartirish, elektron deklaratsiya tizimidan to‘liq foydalanish huquqi);

raqamli platformalar orqali bojxona va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi mexanizmlarini joriy etish;

xalqaro standartlar va tavsiyalarni milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilish;

bojxona xodimlari hamda tadbirkorlar uchun qo‘shimcha o‘quv va malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Shu asosda, O‘zbekistonda VIO institutining to‘laqonli ishlashi nafaqat bojxona tizimini isloh qilish, balki mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga qo‘shimcha qulayliklar yaratishda ham muhim omilga aylanishi mumkin.

“Vakolatli iqtisodiy operator qanday tushuncha?”, “Vakolatli iqtisodiy operator o‘zi kim?” kabi savollarga bir qator soha mutaxassislarining fikrlarini va huquqiy hujjatlarda berilgan ta’riflarni keltirib o‘tsak maqsadga muvofiq. Vakolatli iqtisodiy operator tushunchasi dunyoning barcha mamlakatlarida deyarli bir xil talqin etiladi. Shunday ekan, vakolatli iqtisodiy operatorga berilgan bir nechta ta’riflarni ko‘rib chiqamiz.

Jahon bojxona tashkiloti bergan ta’rifga ko‘ra: “Vakolatli iqtisodiy operator — tashqi savdo bilan shug‘ullanadigan, milliy bojxona organi yoki uning nomidan Jahon bojxona tashkiloti yoki shunga o‘xshash uyushma tomonidan xavfsizlik standartlariga muvofiq deb topilgan har qanday yuridik shaxs hisoblanadi”.

Rossiya Fediratsiyasi Bojxona akademiyasi tadqiqotchisi D. Viktorovich e’tirofiga ko‘ra Xavfsizlikni oshirish va xalqaro savdoni soddalashtirish maqsadida Jahon bojxona tashkiloti bojxona boshqaruvining samarali vositalari va tamoyillarini ishlab chiqmoqda va joriy etmoqda. Ma’lumki, 2005-yilda Jahon bojxona tashkiloti platformasida jahon savdosining xavfsizligi va yengillashtirishning asosli standartlari qabul qilingan bo‘lib, ular vakolatli iqtisodiy operator institutini rivojlantirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi, bu esa xalqaro ekspertlar tomonidan qo‘llab-quvatlanadi, xalqaro tovarlar yetkazib berish zanjirining yuqori darajadagi xavfsizligini ta’minlaydi va tashqi savdo operatsiyalari ishtirokchilari tomonidan imtiyozlar olishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston qonunchiligida vakolatli iqtisodiy operator(keyingi o‘rinlarda – VIO) — bojxona operatsiyalarni amalga oshirishda soddalashtirilgan bojxona tartib-

taomillaridan foydalanish uchun “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi” Nizom talablariga javob beruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Ushbu Nizomga ko‘ra belgilangan talablarni bajargan yuridik shaxslarga nisbatan 3 turdagi VIO guvohnomasi, quyidagi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha beriladi:

- bojxona brokerlariga
- bojxona ombori egalariga
- bojxona tashuvchilariga
- tovarlarni import va (yoki) eksportini amalga oshirish sohasida faoliyat yurituvchi shaxslarga.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risida”gi Nizom talablarini bajargan va belgilangan bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillaridan foydalanayotgan yuridik shaxslar soni 2022-yil mart oyi holatiga ko‘ra 44 tani tashkil qilmoqda. Bir qator qo‘shni va rivojlangan davlatlarda esa bu ko‘rsatkich sezilarli darajada yuqori.

Misol uchun Belorussiya YEOII ga a‘zo davlatlar orasida eng katta ko‘rsatkichga ega bo‘lib 330 ga yaqin VIOLar ro‘yxatdan o‘tgan, Xitoyda bu ko‘rsatkich 3200 dan ortiqni tashkil etsa, AQSHda esa 10000dan ortiqni, Yevropa Ittifoqida 24000 dan ortiqni tashkil etadi. Vakolatli iqtisodiy operatorlar sonining ko‘payishi bevosita ularga qo‘yilgan talablar hamda berilgan soddalashtirishlarga bog‘liq bo‘ladi. Taqqoslash maqsadida bir qator xalqaro konvensiyalar va rivojlangan mamlakatlardagi VIOLarga qo‘llaniladigan soddalashtirishlarni hamda qo‘yilgan talablarni quyidagi jadvallarda ko‘rishimiz mumkin: Yevropa Ittifoqida VIO sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun qo‘yilgan talablarni o‘zimizdagi talablar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, bizda qo‘yilgan talablar ancha yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Bizda qo‘yilgan talablarning yuqori ekanligiga sabab asosiy e‘tibor halollik bilan bir qatorda, eng ko‘p operatsiyalarga qaratilgan, bu esa hamma vaqt bojxona tartib-taomillariga og‘ishmay amal qilib kelgan, nisbatan kichik hajmdagi bojxona operatsiyalarini amalga oshiradigan tadbirkorlik subyektlari VIO sifatida ro‘yxatdan o‘ta olmasligiga va uzoq vaqt davomida halol ishlab ham soddalashtirilgan tartiblardan foydalana olmasligiga sabab bo‘lmoqda. Bu muammoni yechimini quyidagi mulohazada ko‘rishimiz mumkin.

Bunday vaziyatda muqobil yechim, beriladigan imtiyozlarni ham ma‘lum darajada kamaytirgan holda (masalan: to‘lovni ma‘lum bir qismini qoplamasdan kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan imtiyozlar) qo‘yilgan bojxona operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan talablarni bir muncha soddalashtirgan holda yangi guvohnoma turini joriy qilish bo‘lishi mumkin. Birlashgan Arab Amirliklaridagi VIOLar instituti o‘rganib chiqilganda, ularga beriladigan imtiyozlar bir muncha ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan VIOLar tomonidan taqdim etilgan deklaratsiyalar rasmiylashtirilgandan so'ng, deklaratsiyaga o'zgartirish kiritish uchun imtiyozli davr belgilangan, ya'ni imtiyozli davr mobaynida tovarga nisbatan vakolatli shaxs o'zi taqdim etgan deklaratsiyadagi xatoni tuzatish maqsadida hech qanday ma'muriy sanksiyalarsiz va VIO reestirdan chiqarilmagan holda deklaratsiyani o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur imkoniyat bevosita VIOLar instituti rivojlanishiga, shuningdek bojxona rasmiylashtiruvida xato va kamchiliklar bo'lgan hollarda VIOLar tomonidan o'zlari xabar qilgan holda tez bartaraf etilishiga olib keladi. Shu jihatlarni hisobga olib, ushbu imkoniyat milliy VIOLar institutini rivojlantirish ma'lum bir bo'g'ini bo'la olada. Ya'ni O'zbekistonda ham VIOLar uchun yuqorida ta'kidlanganidek imtiyozli davrni (misol uchun: 60 kalendar kun) joriy etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–57-son Farmoni.
3. Karimov, B. Bojxona to'lovlari va ularning iqtisodiy mazmuni. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
4. Egamberdiyev, S. Tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona-ma'muriy tartibga solish masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Tadjibayev, A. Import tarkibini tartibga solishning iqtisodiy asoslari // "Iqtisod va moliya" jurnali. – 2023. – №4. – B. 45–52.
6. Krugman, P., Obstfeld, M. International Economics: Theory and Policy. – New York: Pearson, 2020.
7. WTO (World Trade Organization). World Trade Report 2023: Re-globalization for a secure, inclusive and sustainable future. – Geneva: WTO, 2023.